

SAMARQAND MARVARIDI - REGISTON

Azimov Abdulla Aliyarovich

Termiz Davlat Universiteti Tarix fakulteti

Mamlakatlar va mintaqalararo ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Yoqubov Paxlavon Xudoyberdi o'g'li

Termiz Davlat Universiteti Tarix fakulteti

Mamlakatlar va mintaqalararo ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya; Ushbu maqolada azim Samarqand shahrining gultoji bo'lgan Registon ansambli, undagi me'moriy obidalar, joylashuvi o'rin olgan. Har bir obidaning tarixi, vazifalari, va mamlakat ijtimoiy hayotida tutgan o'rni, hukmdorlarning turli davrlarda ushbu me'moriy obidaga munosabati, qurilish va bunyodkorlik mishlari, ta'mirlash ishlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar; Samarqand, Markaziy Osiyo, Sherdor, Tillakori, Ulug'bek, qum maydon, Yalangto' Bahodir, Amir Temur, chor, YUNESCO.

Dastlabki 1417—1420-yillarda [Ulug'bek madrasasi] bunyod etilib, keyinchalik qarshisiga — maydonning sharqiy qismida Ulug'bek xonaqosi (1424-yil), shimoliy qismiga Mirzoyi karvonsaroyi, janubiga Alike Ko'kaldosh juma masjidi (1430-yil) bunyod etilgan, yonida esa yog'ochdan xotamkori uslubida Masjidi Muqatta va Abusaid madrasasi qurilgan. 1420—1440-yillarida Registon hashamatli me'moriy ansamblga aylangan. XVII asrda Samarqand hokimi Yalangto'sh Bahodir vayrona holatdagi Ulug'bek xonaqosi o'rniga Sherdor madrasasini (1619—1635/36), Mirzoyi karvonsaroyi o'rniga Tillakori masjidini (1646/47—1659/60) qurdirgan. Registon maydoni o'zining rang-barang koshinkori bezaklari; naqshinkori peshtoqlari, ulkan gumbazlari bilan Markaziy Osiyo me'morchiligining noyob yodgorligi hisoblanadi.^[1]

Qadimiy Samarqand shahrining rasmiy markazi Registon maydoni bo'lib, bu yerda uchta madrasa qad ko'targan: Ulug'bek, Sherdor va Tillakori madrasalari. Registon — qadimiy ilm, ta'lim muassasalari joylashgan joy bo'lib,

Sharqdagi shahar qurilishi san'atining eng ko'zga ko'rinarli namunalaridan biri hisoblanadi. U haqda Temuriylar faxr bilan: „Kim bizning kuch-qudratimizga shubha qilsa, kelib biz qurgan binolarni ko'rsin“, deganlar. 2001-yilda bu uch madrasa UNESCOning butun dunyo yodgorliklari ro'yxatiga kiritilgan.

Maydonning nomi - "Registon" "qum maydoni, qumli joy" deb tarjima qilinadi. Darhaqiqat, serhosil vohaning markazi bo'lgan Samarqand shahridagi ushbu maydonning nomiga ta'rif bera oladigan, yana bir talqinda aytilishicha, o'rta asrlarda

Movaraunnahrdagi barcha shaharlarda markaziy maydonlar Registon deb nomlangan, bu Sharqdagi shaharlarning ma'muriy va savdo-hunarmandchilik markazlari bo'lgan

Registon maydoni- tarixda shaharning ilm-fan, siyosat va diniy markazi bo'lgan. "Registon" so'zi "qumloq joy" degan ma'noni anglatadi. O'rta asrlarda hamma katta shaharlarda markazlar "Registon" deb atalar edi. Shu nomdagi maydonlar Buxoro, Shahrisabz va Toshkentda ham bo'lgan. Samarqanddagi maydon esa Markaziy Osiyodagi eng mahobatli va tahsinga sazovor maydonlardan biri edi. Bu maydonda bir necha ming yillik tarix mujassam. Amir Temur hukmronligi davrida Registon Samarqandning markaziga aylantirildi. Ulug'bek davrida esa maydon bundan ham muhimroq ahamiyatga ega bo'ldi. Zamonaviy Registon ansambli o'zida Ulug'bek, Sherdor va Tillakori madrasalarini mujassam etadi.

Registonning janubiy tomonida xalq orasida "Childuxtaron" deb atalmish xonaqoh va maqbaralar joylashgan edi. Ularni Ko'chkunchixon qurdirgan edi va Tillakori madrasasiga qo'sh qilib bunyod etilgan edi. U 1904-yilgi zilziladan so'ng xarobaga aylanib, 1910-yili butunlay buzilgan va o'rni maydon bo'lib qolgan. 100 yil orasida oxirgi ko'rinishini olgan bu Registonni ko'rish ishtiyoqida butun dunyodan sayyohlar tashrif buyurishadi.

Ulug'bek madrasasi Mirzo Ulug'bek tomonidan bunyod etilgan.

Asl ismi Muhammad Tarag'ay bo'lgan Ulug'bek Amir Temurning kenja o'g'li Shohruhning to'ng'ich o'g'li, 1394-yil 22-martda Eronning Sultoniya shahrida tug'ilgan. U 1409-yil otasi Shohruhning yordamida Movarounnahr taxtini egallaydi va u yerda 40 yil, 1449-yilgacha hukmronlik qilgan. U hukmdor bo'lishi bilan birgalikda, buyuk olim bo'lib, astronomiyaga oid "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asarini, tarixga oid "To'rt ulus tarixi" asari va musiqaga oid 5 ta risola yozgan.

Me'moriy obida bunyod etilgan davrda Temuriy shahzodalar o'rtasida o'zaro taxt uchun kurashlar kechayotgan davr edi. Shunday sharoitda Temurning kichik o'g'li Shohruh 1409-yil Xuroson va Movarounnahrni birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Ulug'bek esa Movarounnahrning hukmdori sifatida siyosiy faoliyatini boshladi. Ulug'bek hukmronligi davrida Movarounnahrda ilm-fan, madaniyat, binokorlik yuksak darajada rivojlandi.

Samarqanddagi Ulug'bek madrasasi XV asrning birinchi choragida, 1417-1420-yillarda bunyod etilgan.

Me'moriy obidaning qurilishida bir qator ashyolar ishlatilgan: g'isht (xom va pishiq), loy, yog'och (tut va yong'oq)lardan keng foydalanilgan. Me'moriy obidaning dizayni haqida gapiradigan bo'lsak, 2 qavatli, to'g'ri to'rtburchak tarhli (56x81 m), bosh tarzi maydonga qaragan, mahobatli peshtoq mujassamotida keng toqili ravoq (balandligi 16,5 m), uning 2 yonida guldastalar (balandligi 32 m) mavjud bo'lgan. Madrasa qo'shminorali, Sharq an'analarini o'zida mujassamlashtirgan, gumbazli, arkli, "Chor" uslubida qurilgan.

Me'moriy obidaning o'ziga xos tomoni shundaki, madrasa Registon maydonidagi birinchi qurilgan inshoot.

Me'moriy obidaning bugungi kundagi holati haqida gapirsak, vayron bo'lgan, 2-qavati qiyshaygan guldastasi, devorlaridagi o'chib ketgan bezaklari qayta tiklangan (1936), V.Shuxov va M.Mauerlar loyihasi asosida shimoli-sharqiy minorasi ta'mirlangan (1932). E.Gendel qiyshaygan minorani o'z holiga keltirgan (1965). Tamirlashda A.Umarov, Sh.G'afurov, K.Jalilov, I.Shermuhammedov, A.Quliev kabi ustalar ishlagan.

Sherdor madrasasi Yalangto'shbiy Bahodir tomonidan bunyod etilgan.

Me'moriy obidani bunyod ettirgan shaxs haqida gapiradigan bo'lsak, Yalangto'shbiy Bahodir Saidqul o'g'li, Yalangto'shbiy otaliq (1576-yil Nurota – 1656-yil Samarqand) Ashtarxoniylar davrida olchin qabilasidan bo'lgan harbiy-mulkdor zodagonlarning yirik vakili, Samarqand hokimi (1626-yildan). Nurota hokimi oilasida tug'ilgan. 1611-yili Imomqulixonni taxtga o'tqazishda faol qatnashgan. Shundan so'ng Yalangto'shbiy Bahodirning mavqei ortgan, u Samarqandni 1626-yildan amalda mustaqil idora eta boshlagan va unga otaliq unvoni berilgan. Yalangto'shbiy Bahodirning o'z qo'shini bo'lib, atrofdagi tumanlarga bosqinchilik yurishlari natijasida juda katta moddiy mablag' to'plagan. Yalangto'shbiy Bahodir obodonchilik, qurilish ishlariga katta e'tibor bergan, jumladan, Samarqandda Sherdor madrasa, Tillakori madrasa, Maxdumi A'zam masjidi, xonaqosi (1618) va boshqalarni qurdirgan. Abu Tohirxojaning «Samariya»sida yozishicha, "Yalangto'shbiy Bahodirning qabri Samarqand yaqinidagi Dahbedda, Maxdumi A'zamning oyog'i ostida, sufa ustida, mozor devorining ichidadir". Yalangto'shbiy Bahodir haqidagi xalq orasida ko'plab rivoyatlar, afsonalar ("Yalangto'sh botir" hikoyasi) to'qilgan.

Sherdor madrasasi bunyod etilgan davrdagi tarixiy sharoit haqida gapiradigan bo'lsak, Imomqulixon davri: Amirlar taxtga Boqi Muhammadning o'g'li Imomqulixonni (1611-1642) o'tqazadilar. U Vali Muhammad boshlab kelgan Eron qo'shinlarini tor-mor keltirib, mamlakat mustaqilligini saqlab qoladi. Vali Muhammad asir olinib, qatl qilinadi. 1613-yilda Toshkent yerlarini egallagan qozoqlarga hujum qilib, Toshkentni o'z tasarrufiga kiritdi. O'g'li Iskandar sultonni Toshkent hokimi etib tayinladi. Iskandar sulton boj, xiroj va boshqa soliqlarni ko'paytirib, aholiga qattiq zulm o'tkazdi. Bunga qarshi Toshkentda qo'zg'olon ko'tarildi va Iskandar sulton o'ldirildi. Bu voqeadan xabar topgan Imomqulixon Toshkent ustiga qo'shin tortdi. Qo'zg'olonchilar ayovsiz jazolandilar. Imomqulixon davrida markaziy davlat hokimiyati nisbatan mustahkamlandi. Imomqulixonidan keyin Nodir Muhammad (1642-1645) davrida ijtimoiy-siyosiy tarqoqlik yana kuchaydi.

Sherdor madrasasi Imomqulixon hukmronligi davrida, 1619-1636-yillar oralig'ida bunyod etilgan.

Tillakori madrasasi Yalangto'shbiy Bahodir tomonidan bunyod etilgan.

Me'moriy obidani bunyod ettirgan shaxs haqida gapiradigan bo'lsak, Yalangto'shbiy Bahodir Saidqul o'g'li, Yalangto'shbiy otaliq (1576-yil Nurota – 1656-yil Samarqand) Ashtarxoniylar davrida olchin qabilasidan bo'lgan harbiy-mulkdor zodagonlarning yirik vakili, Samarqand hokimi (1626-yildan). Nurota hokimi oilasida tug'ilgan. 1611-yili Imomqulixonni taxtga o'tqazishda faol qatnashgan. Shundan so'ng Yalangto'shbiy Bahodirning mavqei ortgan, u Samarqandni 1626-yildan amalda mustaqil idora eta boshlagan va unga otaliq unvoni berilgan. Yalangto'shbiy Bahodirning o'z qo'shini bo'lib, atrofdagi tumanlarga bosqinchilik yurishlari natijasida juda katta moddiy mablag' to'plagan. Yalangto'shbiy Bahodir obodonchilik, qurilish ishlariga katta e'tibor bergan, jumladan, Samarqandda Sherdor madrasa, Tillakori madrasa, Maxdumi A'zam masjidi, xonaqosi (1618) va boshqalarni qurdirgan. Abu Tohirxojaning «Samariya»sida yozishicha, «Yalangto'shbiy Bahodirning qabri Samarqand yaqinidagi Dahbedda, Maxdumi A'zamning oyog'i ostida, sufa ustida, mozor devorining ichidadir». Yalangto'shbiy Bahodir haqidagi xalq orasida ko'plab rivoyatlar, afsonalar («Yalangto'sh botir» hikoyasi) to'qilgan. Yalangto'shbiyning buyrug'i bilan ikkinchi yirik madrasa Tillakori 1646-1660-yillar mobaynida qurilgan.

Uning qurilishida pishgan va xom g'isht, loy, yog'och, oltin suvi va qimmatbaho toshlardan foydalanilgan.

Me'moriy inshoot ko'pgina xalqaro sayyohlarning e'tibor-markazida. Bundan tashqari, inshoot YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1 Sh.Qulmatov. A.Berdimurodov. Samarqand yodgorliklari "ImomBuxoriy xalqaro markazi" Samarqand-2017 yil.
2. A.Muhammadjonov. O'zbekiston tarixi: Milodning IV asridan XVI asr boshlarigacha. 7-sinf o'quvchilari uchun darslik. Toshkent. "Sharq" NMAK. 2009-yil.
3. Q.Usmonov, U.Jo'rayev, N.Norqulov. O'zbekiston tarixi: XVI-XIX asrning birinchi yarmi. 8-sinf o'quvchilari uchun darslik. Toshkent. "O'qituvchi". 2010-yil.
4. A.Zamonov. Tarix fanidan olimpiadaga tayyorlanamiz Toshkent-2012 yil